

**Depozit sertifikatlarni oldi-sotdisi bo'yicha
SHARTNOMA № ____/2021**

_____ sh. "___" _____ 2023 y.

Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o'rinlarda "**Bank**" deb nomlanadi) nomidan № _____ sonli Ishonchnoma asosida harakat qiluvchi _____ filiali Boshqaruvchisi _____ bir tarafdin, va _____ (keyingi o'rinlarda "Depozit-sertifikat saqllovchisi" deb nomlanadi) nomidan _____ asosida faoliyat yurituvchi rahbari _____, ikkinchi tarafdin, birgalikda esa "Taraflar" deb yuritiluvchilar ushbu shartnomani (keyingi o'rinlarda "Shartnoma" deb yuritiladi) quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

- 1.1. "Depozit-sertifikat saqllovchisi" Bankka ushbu shartnomaning 3 bo'limida ko'rsatib o'tilgan depozit summasini o'tkazadi, Bank esa "Depozit-sertifikat saqllovchisi"ga egasining nomi yozilgan depozit sertifikatlarni mazkur shartnomaning 2 bo'limiga muvofiq ravishda taqdim etadi.
- 1.2. Sertifikatni tovarlar oldi-sotdisi yoki ko'rsatilgan xizmatlar (ishlar) uchun hisob-kitob qilishda to'lov vositasi sifatida qo'llash mumkin emas.

II. DEPOZIT SERTIFIKAT SHARTLARI

Depozit turi:	Depozit sertifikatlar
Emitent:	"Hamkorbank" ATB
Muomalada bo'lish muddati:	_____ (_____) kun
Nominal qiymati:	_____ (_____) so'm
Soni:	___ (_____) dona
Chiqarilish shartlari:	O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan 202__ yil "___" kuni ro'yxatdan o'tgan.

III. SHARTNOMA SUMMASI

- 3.1. Shartnoma (depozit sertifikat) summasi: _____ (_____) so'm.

IV. HISOB-KITOB TARTIBI

- 4.1. "Depozit-sertifikat saqllovchisi" tomonidan sotib olinayotgan Depozit sertifikatlari bo'yicha shartnoma summasini mazkur Shartnomaning №5.1.2. bandida ko'rsatilgan depozit hisobvarag'iga pul o'tkazish yo'li orqali amalga oshiradi.

V. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

5.1. "Depozit-sertifikat saqllovchisi" majburiyatlari:

- 5.1.1. Bankka depozit hisobvarag'i ochish uchun talab etiladigan barcha hujjatlarni taqdim etish.
- 5.1.2. Shartnoma taraflar tomonidan imzolagan kundan boshlab 10 (o'n) bank ish kuni davomida ushbu Shartnomaning № 3.1. bandida ko'rsatilgan summani to'liq Bankning 23606000 _____, MFO _____, depozit hisobvarag'iga o'tkazib berish.
- 5.1.3. Depozit sertifikat blankasi yo'qotilgan taqdirda 2 bank ish kuni ichida bankni xabardor qilish.
- 5.1.4. Depozit sertifikatlarini muddatidan oldin so'ndirish (to'lov amalga oshirish) talab qilishda Bankni haqiqatda qaytariladigan sanadan kamida bir oy oldin yozma ogohlantiradi.
- 5.1.5. "Depozit-sertifikat saqllovchisi" depozit sertifikatini qaytarish muddati kelganda depozit sertifikatlarini hamda depozit sertifikatida ko'rsatilgan summa, unga hisoblangan foizlarni

qaytarish to'g'risidagi "Depozit-sertifikat saqllovchisi" asosiy depozit hisobvarag'i ko'rsatilgan arizani taqdim qiladi.

5.1.6. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasiga oid me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda Bankning so'roviga asosan lozim darajada tekshirish va operatsiyaga doir tegishli hujjatlarni taqdim qilish.

5.2. Bank majburiyatlari:

- 5.2.1. "Depozit-sertifikat saqllovchisi" nomiga depozit hisobvarag'i ochish.
- 5.2.2. Shartnoma shartlari depozit sertifikatini chiqarish shartlariga to'liq mos kelishligini ta'minlaydi hamda belgilangan tartibda bir yil 365 kun hisobida yillik ____ foiz hisoblab to'laydi.
- 5.2.3. Shartnoma summasi depozit hisobvarag'iga kelib tushgan kundan boshlab 10 (o'n) bank ish kuni davomida ushbu Shartnomaning 2 bo'limida ko'rsatilgan depozit sertifikatlarni "Depozit-sertifikat saqllovchisi"ga taqdim etish.
- 5.2.4. Depozit sertifikatlari chiqarilish shartlari asosida sotiladi hamda depozit summasi uchun foizlar depozit summasi depozit hisobvarag'iga kelib tushgan kunning ertasidan boshlab, mijozga qaytarilgan yoki boshqa asoslarga ko'ra mijozning hisob raqamidan o'chirilgan kundan oldingi kungacha hisoblanadi. Sertifikatning muomala muddati tugagandan keyingi kunlar uchun sertifikatda belgilangan foiz hamda talab qilib olinguncha omonatlar bo'yicha to'lanadigan foizlar hisoblanmaydi va to'lanmaydi.
- 5.2.5. Depozit sertifikatlar bo'yicha hisoblangan foizlarni belgilangan ushlangan holda Depozit-sertifikat saqllovchisiga o'tkazish. "Bank" daromad solig'ini O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlarida belgilangan miqdorda ushlab boradi.
- 5.2.6. Bank Depozit sertifikati bo'yicha foizlarni har oyning oxirgi kalendar sanasigacha hisoblaydi, va keyingi oyning 5 (besh) bank ish kuni davomida "Depozit-sertifikat saqllovchisi"ning shartnomada ko'rsatilgan hisob raqamiga o'tkazadi. Agar ushbu sana dam olish kuniga to'g'ri keladigan bo'lsa, to'lovni keyingi bank ish kundan kechikmagan holda amalga oshiradi.
- 5.2.7. "Depozit-sertifikat saqllovchisi" depozit sertifikatini muddatidan oldin so'ndirishni talab qilgan holda, Bank depozit sertifikatida ko'rsatilgan summani va unga hisoblangan foizlarni mazkur shartnomaning 2-bandida ko'rsatilgan depozit sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo'lish shartlari asosida "Depozit-sertifikat saqllovchisi"ga qayta hisob-kitob qilgan holda o'tkazib beradi. Bunda depozit sertifikat uchun avval o'tkazilgan foizlar depozit hisobvarag'idagi pul mablag'laridan ushlab qolinadi.
- 5.2.8. Bank tomonidan kreditlar, mikroqarzarlar va lizing bo'yicha qarzdorliklarni so'ndirish uchun Depozit mablag'lari to'laligacha ushbu shartnomada kelishilgan Depozitni qaytarish muddati kelgunga qadar depozit hisobraqamidan hisobdan chiqarilganda, unga foizlar ushbu shartnomaning mazkur bandiga asosan, muddatidan oldin qaytarilayotgan mablag'lar uchun belgilangan shartlarda to'lab beriladi.
- 5.2.9. Bank tomonidan "Depozit-sertifikat saqllovchisi"ning depozit sertifikati bo'yicha amaliyotlar to'xtatib qo'yilganda, Bank amaliyot to'xtatilgan sanadan boshlab 5 (besh) ish kundan kechiktirmagan holda "Depozit-sertifikat saqllovchisi"ga uning hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan xabarnoma (ma'lumotnoma) yuboradi.

VI. TARAFLARNING HUQUQLARI.

6.1. "Depozit-sertifikat saqllovchisi"ning huquqlari:

- 6.1.1. Depozit sertifikatini mijoz muddatidan oldin to'lashni (so'ndirishni) talab qilishi, Bunday holda Depozit-sertifikat saqllovchisi depozit sertifikatini amalda bo'lgan muddatiga nisbatan mazkur shartnomaning 2-bo'limida ko'rsatib o'tilgan chiqarish shartlari asosida foiz oladi.
- 6.1.2. Bank tashabbusi bilan depozit sertifikatlari shartnomada belgilangan muomala muddatidan oldin so'ndiriladigan bo'lsa, "Depozit-sertifikat saqllovchisi" depozit sertifikatni amalda bo'lgan muddatiga nisbatan ushbu shartnomaning 2-bo'limida ko'rsatib o'tilgan chiqarish shartlar asosida kelishilgan foizni to'liq oladi.
- 6.1.3. "Depozit-sertifikat saqllovchisi" depozit sertifikatini oldi-sotdi, hadya qilish, meros qilib olish,

ustav fondiga kiritish va egasi almashinuviga olib keladigan boshqa bitimlarda, shuningdek, garovda bitim obyekti sifatida tasarruf etish huquqiga ega, bunda “Depozit-sertifikat saqllovchisi” foiz to‘lash kunidan kamida 10 (o‘n) bank ishi kuni oldin bankni xabardor qilishi va tuzilgan shartnomani nusxasini taqdim qilishi shart.

6.1.4. Bank tomonidan “Depozit-sertifikat saqllovchisi”ning depozit sertifikati hisobvarag‘i bo‘yicha amaliyot to‘xtatilganida va uning topshirig‘isiz hisobidan mablag‘ chiqarilganida _____ orqali xabarnoma olish.

6.2. Bankning huquqlari:

6.2.1. “Depozit-sertifikat saqllovchisi” bilan kelishuv asosida mazkur shartnomani bekor qilishga, “Depozit-sertifikat saqllovchisi”ni shartnomani bekor qilish bo‘yicha “depozit sertifikat saqllovchisi”ning 10 (o‘n) bank ish kuni oldin yozma ogohlantirgan holda bekor qilish.

6.2.2. O‘zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasiga oid me‘yoriy hujjatlarga muvofiq “Depozit-sertifikat saqllovchisi”dan lozim darajada tekshirish va operatsiyaga doir tegishli hujjatlarni talab qilib olish.

6.2.3. Mazkur shartnomaning 6.2.2 bandida nazarda tutilgan hollarda “Depozit-sertifikat saqllovchisi” tomonidan bankka zarur bo‘lgan ma‘lumotlar/hujjatlarni taqdim etmaslik, bajarmaslik, bo‘yin tovlash kabi holatlar yuz berganda bank moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish, voz kechish va bekor qilishga haqlidir.

VII. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Mazkur shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik uchun taraflar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

7.2. Mazkur shartnomada belgilangan to‘lovlarni o‘z muddatida amalga oshirilmagan taqdirda, to‘lovni kechiktirgan taraf to‘lovlar kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan summaning 0,05% miqdorida penya to‘laydi, lekin to‘lanishi lozim bo‘lgan summaning 10% foizidan oshmasligi lozim.

7.3. Penyalarni to‘lash taraflarni mazkur shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

VIII. ALOHIDA SHARTLAR

8.1. Depozit sertifikatlarni topshirish (qabul qilish) ikki tomonlama imzolanadigan dalolatnomaga asosan amalga oshiriladi.

8.2. Taraflar yengib bo‘lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari yuzaga kelganligi, ya‘ni, taraflarning irodasi, xohishi va faoliyatlariga bog‘liq bo‘lmagan tabiat hodisalari, ijtimoiy-iqtisodiy holatlar sababli shartnoma shartlarini to‘liq yoki qisman bajara olmagan taqdirda javobgarlikdan ozod qilinadilar.

8.3. Yengib bo‘lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu taraflarning irodasi, xohishi va faoliyatlariga bog‘liq bo‘lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko‘chki, bo‘ron, qurg‘oqchilik va boshqalar), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko‘zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda taraflarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo‘lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

8.4. Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnoma bo‘yicha o‘zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo‘ladilar.

8.5. Ushbu Shartnomada ko‘zda tutilmagan holatlar bo‘yicha taraflar mazkur shartnomaning 2-bo‘limida ko‘rsatilgan “Hamkorbank” ATB yuridik shaxslar uchun depozit sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo‘lish shartlari hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida ish tutadilar.

IX. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, SHARTNOMANI O‘ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

- 9.1. Shartnoma taraflar o‘rtasida imzolangan va depozit hisobvarag‘iga mablag‘lar joylashtirilgan kundan boshlab kuchga kiradi hamda taraflar o‘z majburiyatlarini to‘liq bajargunga qadar amalda bo‘ladi.
- 9.2. Taraflarning roziligiga asosan mazkur Shartnoma muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin.
- 9.3. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o‘zgarish va qo‘shimchalar yozma ravishda, ikkala tarafning vakolatli shaxslari tomonidan imzolaniib, muhrlari bilan tasdiqlangan taqdirdagina haqiqiy hisoblaniladi.
- 9.4. Mazkur shartnomaning 6.2.2 bandida nazarda tutilgan hollarda mijoz tomonidan bankka zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni/hujjatlarni taqdim etilmaganda, Bank mijozni mavjud aloqa kanallari orqali ogohlantirgan holda shartnomani bir tarafdama bekor qilishga haqlidir.

X. MAXFIYLIK

- 10.1. Mazkur shartnomani tuzish va bajarish vaqtida taraflar bir-biridan olgan barcha ma‘lumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.
- 10.2. Shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog‘ida boshqa tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborot va ma‘lumotlarni axborot egasining yozma ravishdagi roziligisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi. Mazkur talab shartnomaning amal qilish muddati hamda shartnoma muddati tugagan vaqtdan boshlab 3 yil mobaynida amal qiladi.
- 10.3. Maxfiylik talablarini buzgan taraf buning oqibatida ikkinchi tarafga yetkazilgan barcha zararni to‘liq hajmda qoplaydi.

XI. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

- 11.1. Taraflarning pochta manzillari, mulkchilik shakli va rekvizitlari o‘zgargan taqdirda biri birlarini ushbu o‘zgartirishlar ta‘sis hujjatlari va boshqa rasmiy hujjatlarga kiritilgan kundan boshlab 10 (o‘n) kalendar kun ichida yozma ravishda ogohlantirish majburiyatini oladilar. Aks holda eski rekvizitlar bo‘yicha pul mablag‘larni o‘tkazib yuborgan yoki xabarnomalar yuborgan taraf shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajargan hisoblanadi.
- 11.2. Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo‘li bilan hal etadilar. Agar taraflar kelishmovchilik va nizolarni tinch yo‘l bilan hal etishga erisholmagan taqdirda, mazkur kelishmovchilik va nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda iqtisodiy sud orqali hal etiladi.
- 11.3. Shartnoma bir hil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada tuzilib, taraflarda bir nusxadan saqlanadi.

XII. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI:

“Bank”
“Hamkorbank” ATB
_____ filial
_____ manzili
Tel: (____) _____
Faks: (____) _____
Aloka markazi: 0 800 1-200-200, 71 150-91-25
e-mail: contact@hamkorbank.uz
h/r: 23606 _____,
Bank kodi ____, STIR _____, XXTUT 96120
_____ filiali boshqaruvchisi

“Depozitor”
_____ tashkilot nomi _____
_____ manzili
Tel: (____) _____
Faks: (____) _____
h/r 202 _____
Bank kodi ____, STIR _____, XXTUT
_____ vakolatli shaxs lavozimi _____

